

Tulanboyeva Dildoraxon Tulkinjon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dtulanboyeva@gmail.com

Tel: +998907909400

UO‘K 378(14731)

NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILIDA RIVOJLANTIRISHGA DOIR

Annotatsiya: Ushbu maqola nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, ingliz tili o‘qitishni kasbiy yo‘naltirish, nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tili o‘qitishda kasbiy va sohaviy autentik matnlarni o‘qishni o‘rgatish usullari muammolariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini chet til sifatida o‘qitish (*English as a Foreign language*), ingliz tilini kasbiy va sohaviy maqsadlarda o‘qitish (*English for specific purposes (ESP)*), ingliz tilini kasbiy yo‘naltirish, ingliz tilida kasbiy va sohaviy autentik matnlarni o‘qishni o‘rgatish.

Туланбоева Дилдорахон Тулкинжон кизи,
Докторант Наманганского государственного университета

О РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ВУЗА ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности преподавания английского языка в нефилологических областях, профессиональная направленность преподавания английского языка, а также проблемы преподавания профессионально-технических и профессиональных авторских текстов в преподавании английского языка в нефилологических областях.

Ключевые слова: преподавание английского языка как иностранного по нофилологическим направлениям (*English as a Foreign language*), преподавание английского языка для профессиональных и производственных целей (*English for specific purposes (ESP)*), профессиональная направленность английского языка, обучение чтению профессиональных и специализированных аутентичных текстов на английском языке.

Tulanboeva Dildoraxon Tulkinjon qizi,

PhD student of Namangan State University

ON THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF NON-PHILOLOGICAL UNIVERSITY STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE

Abstract: *This article describes the specific features of English language teaching in non-philological fields, professional orientation of English language teaching, methods of teaching reading of professional and industry authentic texts in English language teaching in non-philological fields. is devoted to problems.*

Keywords: *teaching English as a foreign language in non-philological fields (English as a Foreign language), teaching English for specific purposes (ESP), professional orientation of English , teaching reading professional and specific authentic texts in English.*

Kirish

Jamiyatimiz oliy ta'lim muassasalari oldiga kelajak kasbiy faoliyati uchun puxta nazariy bilimlarga ega, olgan bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay oladigan, kasbiy malakalarini ish faoliyati davomida ijodiy tatbiq eta oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan zamonamizda tillarni bilish, ko'p tillilik (poliglossiya) nofilologik yo'nalishlari mutaxassislari tayyorlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy mutaxassislar bu - ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan, ilg'or xorijiy pedagogik va axborot texnologiyalarini puxta egallagan xalqaro munosabatlarda faol ishtirok eta oladigan shaxsdir.

Nofilologik yoʻnalishlarda mutaxassislar tayyorlash tizimi tez surʼatda oʻzgaradigan xalqaro munosabatlar talablariga toʻla javob berishi bilan birga, talabalarda yangilanayotgan pedagogik va kasbiy sohalari boʻyicha axborot almashinuvlari uchun tez moslasha oladigan, kasbiy muloqotga doir masalalarni mustaqil, ijodiy yondashgan holda hal etish xususiyatlarini shakllantirishni oʻz ichiga oladi. Oʻzbekiston Respublikasida jahon andozalariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassis kadrlarni yetkazish davlatimiz siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab xorijiy tillarni oʻrganish va oʻrgatishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Nofilologik yoʻnalish talabalarini kasbga tayyorlash tizimida ingliz tili oʻqitish muhim tarkibiy qismlardan biri maqomini egalladi va oliy taʼlim muassasasi bitiruvchisining umumiy madaniyatini rivojlantirishda ingliz tilini mukammal egallashni taqozo etadi [1: 2.].

Adabiyotlar tahlili

Nofilologik yoʻnalish talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda ularni ingliz tilidagi autentik materiallardan foydalanish, talabalarning taʼlim olishga boʻlgan motivatsiyasini ragʻbatlantirish, oʻrganilayotgan oʻquv materialini boʻyicha bilimlarni oʻzlashtirish sifatini oshirish, ingliz tili oʻqitishda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bilish faolligini oshirish, til oʻrgatishda shaxsiy va guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, ingliz tili oʻqitishda kasbiy va sohaviy yoʻnaltirilgan taʼlim oʻzgaruvchanligini taʼminlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fanlararo aloqalarni oʻrnatish, talabalarning retseptiv, produktiv, nutqiy faoliyat va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, taʼlim jarayonida ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, oʻquv materiallarini oʻzlashtirish strategiyasining umumiy koʻnikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

Nofilologik yoʻnalish talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish asosida nutqiy koʻnikmalarni oshirish

№	Nutq faoliyat turlari	Kasbga oid nutqiy faoliyat turlariga doir dasturiy talabalar
---	--------------------------	--

1.	Gapirish ko'nikmasi bo'yicha	1.Ko'rish va o'qish orqali idrok etilgan kasbiy va sohaviy mavzularga oid o'quv materiallari bo'yicha monologik-bayon, monolog-xabar, monolog-mulohazalarga doir muloqotlarda qatnashish; 2. Ko'rgan va o'qigan kasbiy va sohaviy mavzularga oid o'quv materiallari asosida muloqotlarda qatnashish; 3.Kasbiy va sohaviy muloqotda nutqiy etiket me'yorlariga rioya qilgan holda ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha dialog-fikr almashish va dialog-intervyu suhbatni boshlash, olib borish va unda qatnashish; 4.Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ma'lumotlarni so'rash, qayta so'rash, jumlaning qayta tuzish; 5. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha qisqa yoki batafsil axborotlarni tayyorlash; 6. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilish.
2.	Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha	1.Ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlar hamda pedagogika va psixologiya yo'nalishiga doir sohaviy leksikadan foydalangan holda matnlarning asosiy mazmunini tinglab tushunish; 2.Murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarning (xabarlar, hikoyalar) asosiy mazmunini tushunish; 3.Ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlardagi pedagogika yo'nalishiga oid sohaviy leksikadan foydalangan holda talab qilinayotgan muhim axborotlarni tushunish.
3.	O'qish ko'nikmasi	1.Kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarga qo'yilgan vazifalarga muvofiq axborotlarni izlash;

	bo'yicha	2. Murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop, ilmiy matnlar, blog/veb-sahifalarning asosiy mazmun-mohiyatini tushunish (reklama va axborotli kitobchalar, risola/ prospektlar); 3. Kasbiy leksikadan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarni o'qib tushunish; 4. Axborot va reklama tavsifidagi kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlardan talab qilinayotgan muhim axborotlarni ajratib olish.
4.	Yozuv ko'nikmasi bo'yicha	1. Kasbiy va sohaviy yo'nalishdagi autentik shakl va namunalarni to'ldirish (anketa, viza va boshqalar); 2. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid asosiy fikr-mulohaza hamda faktlarni qayd qilish (video va matnli bichimdan); 3. Tarjimai hol (Curriculum Vitae/Resume), ishga qabul qilishda kerak bo'ladigan yo'llanma xatlarini yozish; 4. Yozma ravishdagi loyihaviy vazifalarni bajarish (taqdimot, reklama va axborotli buklet, poster va boshqalarni tayyorlash), kasbiy va sohaviy mavzularda ilmiy maqolalar tayyorlash.

Jadvalda aks etganidek, nofilologik yo'nalish talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish asosida nutqiy ko'nikmalarni oshirish ularning mustaqil faoliyatiga zamin yaratadi. Ular pragmatik tavsifdagi shakl va namunalarni to'ldirish, o'rganilayotgan muammo bo'yicha asosiy fikr-mulohaza va faktlarni qayd qilishga o'rganib borishadi. Talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalari ularning ingliz tili bo'yicha avvaldan egallagan tayanch bilimlari asosida shakllanadi. Talabalarning ingliz tilidagi kasbiy va sohaviy nutqini o'stirish ularning maktab davrida o'zlashtirgan ko'nikma va malakalariga tayanadi [3; 4; 5:27-34, 8:24-25.]. Shunga ko'ra kasbiy bilim va ko'nikmani egallash natijasida kasbiy malaka shakllanadi. O'zbek (ona) tilidan o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda shu tildan orttirilgan har qanday nutqiy tajriba ingliz tilni

o'rganishga yordam berishi o'qitishda transpozitsiya hodisasi sodir bo'ladi. Aksincha, salbiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni xalaqit berishi esa interferensiya deb ataladi. Til materiallari to'qnashuvidan kelib chiqadigan uch xil interferensiya mavjudligi prof. J.Bo'ronov tomonidan e'tirof etilgan. Olimning ta'kidlashicha, ingliz til o'qitish-o'rganishdagi bosh maqsad kommunikativ layoqatni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy jihatdan tadqiqot uslublarini birlashtirgan aralash usullar yondashuvidan foydalanildi. Nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir mavjud tushuncha va modellarni aniqlash uchun keng ko'lamli adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va talabalarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tajribalari va qarashlarini bilish uchun turli ta'lim muassasalarida so'rovlar va intervyular o'tkazildi. Quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi:

1. Adabiyotlar tahlili: Nofilologik yo'nalishlarda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq joriy me'yorlar, modellar va ilg'or amaliyotlarni o'rganish maqsadida keng qamrovli adabiyotlar tahlili o'tkazildi [3]. Ushbu tahlillar ilmiy jurnallar, konferensiya ma'ruzalari va tegishli amaliy tadqiqotlarini o'z ichiga olib, hozirgi bilimlarni to'plab, tadqiqotdagi bo'shliqlarni aniqlashga yordam berdi.

Ta'limni intensivlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida qo'llash masalasi B.S.Abdullayeva, N.N.Azizxodjayeva, V.I.Andriyanova, R.X.Djurayev, Isyanov R.G, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, O'.Tolipov tomonidan tadqiq etilgan. Xalqaro talablar asosida chet tillarni o'qitishni hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirish A.Abdulazizov, Z.Abdujabbarova, L.T.Ahmedova, G.Boqiyeva, J.J.Jalolov, F.Ikramxanova, G.Mahkamova, S.Misirov, F.Rashidova, X.Saynazarov, T.Sattarov, D.R.Xoshimova, J.A.Yakubov ilmiy ishlarida tadqiqot obyekti bo'lgan.

MDH olimlaridan chet til ta'limini metodik jihatdan o'rganish

N.D.Galskova, M.V.Lyaxovitskiy, Ye.I.Passov, G.I.Rogova, R.K.Min'yar-Belorushev, K.I.Salomatov, Ye.N.Solovova, L.V.Shcherba, chet til o'qitishning pedagogik psixologik tomonlari I.A.Zimnyaya, A.A.Leontevning ilmiy ishlarida keng yoritib berilgan.

Kommunikativ kompetensiyaning nazariy tadqiqotlari R.P.Milrud, V.V.Safonova, kommunikativ va faoliyatli yondashuv, kasbga yo'naltirilgan muloqot masalalari A.A.Verbitskiy, Ye.I.Passov, L.K.Salnayalar tomonidan o'rganilgan. Pedagogik hodisalar, jarayonlar va ob'ektlarni o'rganishga sotsiomadaniy yondashuv nazariyalari V.V.Krayevskiy, V.Safonova, S.G.Ter-Minasova, A.V.Xutorskiy, lingvistik va kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi A.K.Krupchenko, S.M.Kashuk, T.A.Dmitrenko, I.Z. Borisova tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida olimlaridan T.Hutchinson, A.Waters, R.L.Oxford, Nina Grapa, D.W. Johnson, P.F.Trembleu, M.CanalM.Swain, S.Brumfit, C.Chappell, V.Melville tilni o'qitishda madaniy yondashuvlarning integratsiyasi masalasi, shuningdek, til ta'limining turli aspektlari tadqiqotlar olib borishgan. Mutaxassislarning kasbiy kompetensiya masalalari, kasbiy yo'naltirilgan muloqotni rivojlantirish masala tadqiqi J.Richard, S.Rodgers, T. Nutchinson, A.Waters, D.H.Johnson, Nina Grapa, Trembleu P.F, M.Swain, M.Canal,S.Brumfit ishlarida o'z ifodasini topgan.

Yuqoridagi tadqiqot ishlarida o'rganilgan ilmiy-nazariy muammolar nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy kompetensiyasini ingliz tilida rivojlantirishga qo'yiladigan talablarning metodologiyasini tashkil qiladi.

2. So'rovnomalar: Turli ta'lim muassasalaridan o'qituvchi va talabalar orasida tuzilgan anketalar tarqatildi. Ushbu so'rovnomalar yopiq va ochiq savollardan iborat bo'lib, talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir qarashlar, foydalanilayotgan ta'lim usullari va ularning samaradorligi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratildi[4]. Yig'ilgan miqdoriy ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinib, tendentsiyalar va korrelyatsiyalar aniqlandi.

3. Intervyular: Tanlangan professor-o'qituvchi va talabalardan kasbiy

kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha chuqurroq fikr va tajribalarni olish uchun yarim tizimli suhbatlar o'tkazildi. Ushbu intervyular shaxsiy qarashlar, duch kelingan qiyinchiliklar va kasbiy kompetensiyani rivojlantiruvchi texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishdagi muvaffaqiyatli strategiyalarni aniqlashga qaratildi[5]. Sifat jihatidan olingan ma'lumotlar tematik tahlil qilinib, umumiy mavzular va noyob qarashlar aniqlandi.

Ushbu usullarni birlashtirgan holda tadqiqot nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy metodik talablarni har tomonlama o'rganishga, shuningdek, ularning turli ta'lim muhitlarida qo'llanishi bilan bog'liq murakkabliklarga e'tibor qaratishga intiladi.

Tahlil va natijalar

Ingliz tili bo'yicha darsliklarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda berilgan mavzularning xilma-xilligi, ya'ni nofilologik yo'nalishlarga oid kasbiy va sohaviy matnlarni o'qish, tili o'rganilayotgan mamlakatdagi yoshlarning hayoti, urf-odati, milliy bayramlari va mashhur kishilari haqida batafsil ma'lumotlarning berilishi ham bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini yanada kengayishiga zamin yaratar ekan. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi ortishiga va ularning dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, ingliz tilini o'rgatish turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi, ularning dunyoqarashini boyitadi. Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tili o'rgatishdan maqsad - talabalar bo'lajak kasbiy faoliyatlarida o'zlari o'rganib kelayotgan ingliz tilidan amaliy foydalana olishdir. Talabalar o'zlari tanlagan sohalari hisoblangan yo'nalishlar bo'yicha ingliz tilida ham ma'lumot o'qib bilishlari, kasbiy va sohaviy matnlarni o'qib tushuna olishlari, ilmiy konferensiyalarda ishtirok eta bilishlari kerak bo'ladi. Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini kasbiy yo'naltirilishi, birinchidan, "ingliz tili" o'quv predmetining mutaxassislik ixtisoslik va kasbiy fanlari bilan integrasiyalashuvi; ikkinchidan, ingliz tili o'qituvchisi oldida shunday vazifa turadiki, fanlararo aloqani o'rnatish asosida ingliz tilidan foydalanish natijasida talaba kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlantirilishi; uchinchidan,

bo'lajak mutaxassis uchun zaruriy kasbiy ko'nikma, malakalarni rivojlantirishda ta'limning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mavjud didaktik prinsiplar ingliz til o'qitishga tatbiq etiladi, biroq ulardan "Ingliz tili" o'quv predmetida foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. O'ziga xoslik ingliz til o'rgatish tizimida namoyon bo'ladi [9:221-121].

Ingliz tili ta'limida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ingliz tili ta'limining o'ziga xos didaktik xususiyatiga ega. Bu borada professor Ye.S.Polatning fikricha, ingliz tilining didaktik xususiyati shundan iboratki, unda fan asoslari o'qitilmaydi, balki nutqiy faoliyat turlari bo'yicha malaka o'rgatiladi. Ingliz tili o'rgatishdan maqsad kommunikativ kompetensiyani egallashni nazarda tutadi [6].

Birgina kasbiy va sohaviy mavzular asosida talabaga ingliz tili darsida ham bo'lajak kasbiga oid ma'lumotlarning berib borilishi ularning ta'limidan ko'zlangan maqsadga erishishimizda muhim omil bo'lib, o'z samarasini beradi. Bu borada ingliz tili o'qituvchisining mutaxassislik fani o'qituvchilari bilan uzviy bog'langan bo'lishi ko'zlangan maqsadga erishishni osonlashtiradi. Bunday holda fanlararo integrasiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili o'qituvchisi mutaxassis chiqaruvchi kafedra bilan birgalikda bog'liq ravishda fanlararo integratsiyaga amal qilib ish ko'rsa, biz ko'zlangan maqsadga tezroq erishilishi o'tkazilgan tajribalardan ayon bo'ldi. Demak, ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini hosil qilish va rivojlantirish uchun muayyan mashqlarni bajarish zarur bo'ladi. Mashqlarni bajarish natijasida talabalarda og'zaki va yozma nutqiy malakalar shakllanadi. Shuningdek, maqsadga erishishda, albatta, xotirani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shunday qilib, nofilologik yo'nalish talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda ingliz tilini egallash shaxs kamoloti uchun ahamiyatlidir. Ingliz tilini egallash orqali yoshlarni dunyoga xalqimiz ma'naviyati, madaniyati va san'atini, kasbiy va sohaviy yangiliklarini tanitish imkoniyati yaratiladi.

Xulosalar

Nofilologik yoʻnalish talabalarida ingliz tili oʻrgatishning asosiy maqsadi: oʻqish va oʻzining tor sohasi boʻyicha maʼlumot olish-berishdir, yaʼni tanlangan sohadagi matnlarni oʻqish (informatsiya olish) va dastur doirasidagi ogʻzaki nutq mavzulari yuzasidan ingliz tilida fikr almashishdir. Shunday qilib, Oʻzbekistonda nofilologik yoʻnalish talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga qoʻyilayotgan zamonaviy talablar oʻziga xos innovatsion strategiya asosida amalga oshirilmoqda. Ingliz tilini oʻrgatishda talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish koʻp bosqichli taʼlimiy jarayon sifatida amalga oshirilmoqda. Ingliz tilini amaliy egallash orqali talabalar nafaqat tili oʻrganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, urf odatlari, sanʼati kabilar haqida axborotga ega boʻlib boradilar, balki, mazkur jarayonda talabalar oʻzlarining boʻlajak ixtisosliklari boʻyicha hamda kasbiy va sohaviy malakalarini rivojlantirib borish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy majlisi murojaatnomasi//Pravda vostoka., 2017 yil 23 dekabr. -№ 248(28706) –B.2.
2. Буранов Дж. Типологические категории и сравнительное изучение языков: Автореф. ... док.филол. наук. – М., 1979. – 48с.].
3. Исаева О.Н. Сущность профессионально-ориентированного обучения студентов-нефилологов иностранном языке: Вестник , 2007.– № 1. с- 130.
4. Комарова Е.В. Некоторые способы интенсификации процесса обучения иностранному языку в техническом ВУЗе// Современные научные исследования и инновации. 2015. №3.
5. Ляховиский М.В. О некоторых базисных категориях методики обучения иностранному языкам // Иностранные языки в школе. – 1973. – № 1. – с.27-34, 6. Polat Ye.S. Основные направления развития Современных систем образования / Ye.S. Polat (<http://www.IOSO.ru/distant/>).

7. Сайназаров С. Общие и частные в методике обучения иностранном языкам // Тезисы докладов и сообщений Республиканской научно-методической конференции по теории и методике преподавания иностранных языков в средних школах, высших и средних педагогических заведениях. – Т., 1980. – с. 196-197.

8. Селевко Г.К. Технологический подход в образовании // Школьные технологии. – 2004. – №4. – с. 24-25.].

9. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизации. –Воронеж: Истоки 1996. –237 с.